UÓK.636.32/.38:082.11

QORAQALPOQ SUR QORAKÓL QÓYLARINING RANGBARANGLIK VA GUL TIPLARI BÓYICHA SELEKSIYASI HAMDA TIRIK VAZN VA MAHSULDORLIK KÓRSATKICHLARINI BAHOLASH

Seytmusayeva Zuxra Abatbayevna
Qishloq xo'jaligi fanlari falsafa doktori (PhD)
Samarkand davlat veterinariya meditsinasi,chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali
Sultamuratova Hurliman Muratbayevna
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali magistrant

Annotatsiya. *Maqolada qoraqalpoq sur qorakól qóylarining gul tiplari va rangbarangliklari bóyicha tirik vazn, seleksion belgilar va irsiy potensialini baholash tadqiq etilgan. Tajribalar natijalari kórsatdiki, ósikgul tipidagi qóylar boshqa gul tiplari bilan solishtirganda buǵozlik davrida statistik jihatdan sezilarli darajada yuqori tirik vaznga ega. Tadqiqot natijalari qorakól qóylarining samarali seleksiyalash va urchitish, shuningdek ularning mahsuldorlik va irsiy salohiyatidan unumli foydalanish bóyicha tavsiyalar beradi.*

Kalit sózlar*: qoraqalpoq sur, qorakól qóy, gul tipi, tirik vazn, seleksion tadqiqot, irsiy potensial, urchitish.*

Kirish. Bugungi kunda qóychilik rivojlangan 40 dan ortiq mamlakatlarda qóylar genofondining genetik-irsiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish va seleksiya ishlarini ilmiy asosda tashkil etish orqali gósht, sut, sifatli teri va jun mahsulotlarini ishlab chiqarishni oshirishga katta e'tibor berilmoqda. Xalqaro tadqiqotlar bólgan seleksiya ishlarining ahamiyatini ta'kidlab, qóylarning genetik resurslaridan foydalanish yólini talab etadi (Sciencedirect, 2011).

Qorakól zotli qóylar jahon bóyicha keng tarqalgan bólib, ular soni hozirgi kunda 48–49 mln boshni tashkil etmoqda va asosan Afǵoniston, Ózbekiston, Janubiy Afrika Respublikasi, Namibiya, Qozoǵiston, Turkmaniston, Botsvana va Eron kabi mamlakatlarda kópaytirib kelinadi (FAO statistikasi, 2023).

Ekstremal chól sharoitida moslashgan qorakól qóylarining turli rang, tus, rangbaranglik va gul xususiyatlariga ega teri mahsulotlarini eksportbop darajada yetishtirish ilmiy tadqiqotlarning muhim yónalishlaridan biridir. Jahon bozorida turli

rangbaranglikka ega qimmatli qoraqalpoq sur qorakól teri mahsulotlariga bólgan talabning ortgani mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirishni taqozo etmoqda (FAO statistikasi, 2023).

Yillar davomida seleksioner olimlar qorakól qóylarining boy genofondini chuqur órganish, ularni rang va rangbaranglik hamda gul tiplari bóyicha guruhlash va maqsadli urchitish (turlarga ajratish va urchitish) usullarini takomillashtirish yónalishlarida tadqiqotlar olib bormoqdalar.

MDH mamlakatlarida qorakól qóylar bosh sonini kópaytirish bilan bir qatorda, chól ósimliklarining tur ehtiyojlarini tahlil qilish, qóybop ósimliklar uruǵini tayyorlash va ekish ishlariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda (Sciencedirect, 2011). Ózbekistonda qoraqalpoq sur qorakól qóylarini samarali seleksiyalash, urchitish, yuqori irsiy genotipli zavod va zot tiplarini yaratish, mahsuldor suruv guruhlarini shakllantirish va muhim belgilarning namoyon bólish barqarorligini mustahkamlash borasida muayan ilmiy ishlar amalga oshirilgan, biroq tirik vazn kórsatkichlari, seleksiya va urchitish jarayonlarining barqarorligi hamda jun sifati kabi yónalishlarda tadqiqotlar kólamini kengaytirish talab etiladi.

Seleksiya, urchitish va genetik resurslardan samarali foydalanish davlat tomonidan ham qóllab-quvvatlanmoqda. Xususan, Ózbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi **PF-60-sonli "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi Ózbekistonning taraqqiyot strategiyasi tóǵrisida"**gi farmoni seleksiyani ilmiy yónalishda rivojlantirishni nazarda tutadi (PF-60, 2022).
Shuningdek, 2020 yil 2 sentabrdogi **PF-6059-sonli "Ózbekiston Respublikasida pillachilik va qorakólchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari tóǵrisida"**gi farmon seleksiya ishlari, genetik resurslardan maqsadli foydalanish va yuqori sifatli mahsulotlarni yaratish vazifalarini belgilab beradi (PF-6059, 2020).
2018 yil 14 martdagi PQ-3603-sonli qaror va 2019 yil 16 avgustdagi PQ-4420-sonli qarorlar esa qorakólchilik sohasini kompleks rivojlantirish, "Ózbekiston qorakóli" brendini yaratish va uni xalqaro bozorda tarǵib qilish uchun strategik yónalishlarni belgilaydi (PQ-3603, 2018; PQ-4420, 2019).

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqib, ushbu tadqiqot ishi qoraqalpoq sur qorakól qóylarining seleksiyalash, ularning genetik salohiyatidan samarali foydalanish va jahon bozori talablariga mos mahsuldorlik kórsatkichlarini shakllantirishga qaratilgan ilmiy ishlar doirasida amalga oshiriladi.

Tadqiqotning maqsadi — qoraqalpoq sur qorakól qóylarini ilmiy asoslangan seleksiya va maqsadli urchitish usullari orqali takomillashtirish, ularning mahsuldorlik kórsatkichlari hamda irsiy (genetik) salohiyatidan samarali va barqaror foydalanish yóllarini aniqlashdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun qoraqalpoq sur qorakól qóylarining asosiy xójalik-foydali belgilari - tirik vazn, teri sifati, jun va tola kórsatkichlari, rangbaranglik xususiyatlari hamda avlodlarda belgilarning namoyon bólish barqarorligini baholash va ular asosida samarali seleksion-urchitish modelini ishlab chiqish kózda tutiladi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot ishlarini amalga oshirishda zootexniya fanida umum qabul qilingan usullar, shuningdek irsiyat va ózgaruvchanlik qonuniyatlarini ochib berishga qaratilgan seleksion, urchitish va biometrik tahlil usullaridan foydalanildi.

Qorakól qózilarining seleksion belgilarini baholash ishlari “Qorakólchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qózilarni baholash (bonitirovka qilish) bóyicha qóllanma” (S.Y. Yusupov va boshqalar, 2015) asosida olib borildi. Ushbu qóllanma talablariga muvofiq qózilarning tirik vazni, rangbaranglik xususiyatlari, teri sifati, jun va tola kórsatkichlari hamda boshqa xójalik-foydali belgilari kompleks baholandi.

Olingan eksperimental ma’lumotlarga statistik ishlov berishda “Руководство по биометрии для зоотехников” (Н.А.Плохинский, 1962) qóllanmasida keltirilgan biometrik usullar qóllanildi. Hisob-kitoblar jarayonida órtacha arifmetik kórsatkich (X), uning xatosi (Sx), ózgaruvchanlik koeffitsienti (Cv), ishonchlilik mezonlari (td) hamda ishonch darajasi (P) aniqlandi.

Tadqiqot natijalari. Qorakól qóylarining oǵir chól sharoitida ósish va rivojlanishini jadallashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Tabiiy-iqlim va yaylov-ozuqa sharoiti murakkab bólgan shimoliy Qoraqalpoǵiston hududida bu masala ayniqsa dolzarb hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qo‘ylarning buǵozlik davrida yetarli oziqlantirilishi va parvarish qilinishi ularning nasldorlik sifatlari hamda keyingi mahsuldorlik kórsatkichlariga ijobiy ta’sir etadi.

Shu bois tadqiqotlarda tajribaga jalb etilgan qóylarning ósish va rivojlanish kórsatkichlari gul tiplari kesimida tahlil qilindi. Buǵozlikning oxirgi davridagi tirik vazn kórsatkichlari 1.2-jadval ma’lumotlari asosida umumlashtirildi va statistik jihatdan baholandi.

1-jadval

Tajribadagi qóylarning gul tiplari miqyosida tug‘im oldi tirik vazni kórsatkichlari

Gul tipi	n	Tirik vazni, kg	
		X±Sx	Cv
Yarim doira qalamgul	25	33,72±0,226[x)]	3,35
Qovurg‘asimon	25	32,64±0,222[x)]	3,40
Yassi	25	32,92±0,364[x)]	5,53
O‘sikgul	25	35,6±0,282	3,96

X)-P<0,001

2-jadval

Tajribadagi qóylarning rangbarangliklar miqyosida tirik vazn kórsatkichlari (X-P<0,05; P<0,001)

Rangbaranglik	n	Tirik vazni, kg	
		X±Sx	Cv
Shamchiroqgul	25	34,32±0,468[x]	6,81
Órikgul	25	34,76±0,392[x)]	5,64
Pólati	25	32,92±0,344	5,22
Qamar	25	35,12±0,332[x)]	4,72

X-P<0,05; P<0,001

Natijalar shuni kórsatdiki, buǵozlikning yakuniy bosqichida barcha gul tiplaridagi qóylarda ma'lum darajada vazn tashlash kuzatilgan bólsa-da, guruhlar órtasida statistik ishonchli farq (P<0,001) aniqlangan. Eng yuqori órtacha tirik vazn kórsatkichi ósikgul tipli qóylarda qayd etilib, 35,6±0,282 kg ni tashkil etdi.

Ósikgul tipining ustunligi yarim doira qalamgul tipiga nisbatan 1,88 kg (P<0,001), qovurǵasimon tipga nisbatan 2,96 kg (P<0,001) hamda yassi tipga nisbatan 2,68 kg (P<0,001) yuqori ekanligi bilan tasdiqlandi. Variatsiya koeffitsientlarining past darajada bólishi belgining guruh ichida nisbatan barqaror namoyon bólayotganini kórsatadi.

Shunday qilib, 1.2-jadval ma'lumotlari asosida ósikgul tipli qorakól qóylari oǵir chól sharoitida yuqori tirik vazn kórsatkichlariga ega ekani va seleksiya ishlarida istiqbolli genotip sifatida foydalanish mumkinligi aniqlandi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni kórsatdiki, shimoliy Qoraqalpoǵistonning oǵir chól sharoitida qorakól qóylarining tirik vazni ularning gul tipiga boǵliq bólib, ósikgul tipli qóylar eng yuqori mahsuldorlik kórsatkichlarini namoyon qiladi. Buǵozlik davrida qóylarni yetarli oziqlantirish va parvarish qilish ularning nasldorlik salohiyatini oshirishga sezilarli ijobiy ta'sir kórsatadi.

Statistik tahlil natijalari (P<0,001) ósikgul tipining boshqa gul tiplari bilan solishtirganda ustunligini tasdiqladi, bu esa seleksiya va urchitish ishlari uchun istiqbolli guruh sifatida qarash imkonini beradi. Shu bois, mazkur gul tipidagi qorakól qóylarining genetik salohiyatini samarali seleksiyalash va urchitish orqali yuqori sifatli gósht, teri va jun mahsulotlarini yetishtirish imkoniyati mavjud.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari qorakól qóylarining irsiy imkoniyatlarini yanada rivojlantirish, ularning mahsuldorligini oshirish va seleksion ishlarni samarali tashkil etish bóyicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Юсупов С.Ю., ва бошқалар. Қоракўлчиликда наслчилик ишларини юритиш ва қўзиларни баҳолаш (бонитировка қилиш). Тошкент, 2015.
2.Плохинский Н.А. Руководство по биометрии для зоотечников. Москва, 1962.
3.ФАО. Domestic Animal Diversity Information System (ДАД-ИС) database. Rome, 2023. https://www.fao.org/dad-is
4.Ўзбекистон Республикаси Президенти. ПФ-60-сонли Фармон. Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси 2022-2026 йиллар. Тошкент, 2022.
5.Ўзбекистон Республикаси Президенти. ПФ-6059-сонли Фармон. Ўзбекистонда пиллачилик ва қоракўлчиликни ривожлантириш чора-тадбирлари. Тошкент, 2020.
6.Ўзбекистон Республикаси Президенти. ПҚ-3603-сонли Қарор. Қоракўлчилик соҳасини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари. Тошкент, 2018.
7.Ўзбекистон Республикаси Президенти. ПҚ-4420-сонли Қарор. Қоракўлчилик тармоғини комплекс ривожлантириш чора-тадбирлари. Тошкент, 2019.